

Д. Мизауева

ISSN 2415-8771

ИНТЕРНАУКА
internauka.org

**СУ МЕЖДУНАРОДНАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ**



**МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ:
ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ**

ZOONIMLARNING DOMINANTLIK XUSUSIYATLARIGA KO'RA TASNIFLANISHI Salimova Bahora	253
ZOONIMLI FRAZEOLOGIZMLARNING IFODA VOSITALARI Salimova Bahora	258
XORIJIY TILLARNI BILISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH Xotamova Parvina	264
CHET TILINI O'QITISHDA HOZIRGI ZAMON AXBOROT TEXNALOGIYANING QO'LLANILISHI Абдуллаева Санобар	267
LINGVOKULTUROLOGIYADA KONSEPT LISONIY BIRLIK SIFATIDA Musayeva Dilso'z Xayrullayeva Gulnora	271
O'QUV JARAYONIDA INTERFAOL TEHNIK VOSITALAR TURLARI VA UNING O'RNI Садуллаева Гулширин	275
AGRESSIYA KONSEPTI VA UNING VERBALLASHUVI Xayrullayeva Gulnora Musayeva Dilso'z	279
CHET TILLARINI O'QITISHNING PEDAGOGIK TAMOIYILLARI Хамракулова Фарангиз	282
XORIJIY TILLARNI O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Хасанов Сухроб Шавкатович	286
2-секция Filologiya	289
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z BIRIKMALARINING STILISTIK VOSITALAR ORQALI IFODALANISHI Namozova Saodat	289

AGRESSIYA KONSEPTI VA UNING VERBALLASHUVI

Xayrullayeva Gulnora

*Magistrant, Qarshi Davlat Universiteti,
O'zbekiston, Qarshi*

Musayeva Dilso'z

*Magistrant, Qarshi Davlat Universiteti,
O'zbekiston, Qarshi*

Kognitiv tilshunoslik va pragmalingvistikaning taraqqiyoti emotsiya bilan bog'liq bo'lgan ko'plab ishlar, tadqiqotlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu hol lingvokulturologik jarayonda tipologik nuqtai nazardan olib borilishi esa emotivlik turlarining turli tillarda o'ziga xos ifodalanishini ochib berishga xizmat qilmoqda.

Emotsiyalarning turli lingvokulturologiyalardagi verballashuvining qiyosiy tadqiqotlariga ham muhim e'tibor qaratilmoqda. Emotsiyalar esa universal hodisa deb hisoblaydiganlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Emotsional leksikaning tipologik strukturasi ko'rilayotgan har bir tilda o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aytiladi. Emotsiyalarning rus tili talqinida asosiy va asosiy bo'lmagan turlarga ajratgan K.Izard asosiy emotsiyalar sifatida *интерес* (qiziqish), *радость* (xursandchilik), *удивление* (hayrat), *печаль* (g'am-anduh), *гнев* (g'azab), *отвращение* (nafrat), *презрение* (yomon ko'rish), *страх* (qo'rquv), *стыд* (uyat), *чувство вины* (aybdorlik hissi) kabi turlarini keltiradi. K.Izardning qarashlaridan farqli o'laroq emotsiya xususida R. Korneliyus quyidagicha fikr yuritadi: "konkret aniqlangan emotsiya mavjud emas. faqatgina har xil odamlarning emotsiyalarini ifodalashida umumiylik bor bo'lib, evolyutsion biologik xususiyat sifatida qarash mumkin".

Ko'rinib turibdiki emotsiyalarning turli tillardagi xususidagi fikrlar bir xil emas va shuning uchun ham emotsiyalarning turli til sathlaridagi tipologik tahlili o'z dolzarbligini yo'qotgan emas hamda tadqiqodchilarning e'tiborini jalb etib kelmoqda.

Tildagi emotsiyalarni tasvirlashning turlicha yo'nalishlari mavjud bo'lib, bu boradagi klassik yondoshuvchilar sifatida L.Iordanskoy va A.Vejbitskayalarni keltirish mumkin. Ushbu tilshunoslar semantik nuqtai nazardan yondashishgan bo'lsa, Dj.Lakova va Z.Kevecheslar esa agressiyaning kognitiv jihatlarini talqin qilishadi. Emotsianallikni kognitiv nuqtai nazardan ingliz va rus tillarida qiyosiy tipologik tahlilini taniqli tilshunos

Y.V. Apresyan ishlarida ham kuzatish mumkin. Olim, mazkur sohaga tegishli bo'lgan emotsional konseptlarni 11 ta ("страх – qo'rquv", "гнев – g'azab", "отвращение – nafrat", "грусть – g'am", "радость – quvonch", "стыд – uyat", "жалость – achinish", "обида – xafagarchilik", "гордость – faxr", "ревность/зависть – rashk/hasad", "благодарность – minnatdorchilik") guruhlariga ajratadi. Muallif emotsional konseptlarni tipologik tahlil qilish jarayonida asosiy e'tiborini ularning konseptual realizatsiyasiga qaratish bilan cheklanib qolmasdan, emotsional birliklarning semantik maydonining tahliliga ham to'xtaladi va ingliz hamda rus tillaridagi "qo'rquv" emotsional birligining fiziologik, biologik, neytral turlarini taqqoslaydi.

U har bir emotsional guruhga tegishli til birliklarini har xil emotsional jihatlarini ifodalanishiga qarab emotsiyaning turli belgi va turlarining gap bo'laklaridagi sinonimlarini, tipologik jihatdan qiyoslaydi. Unga ko'ra:

- emotsional kauzatsiya (*нызгать* – qo'rqitmoq, *страшный* – qo'rqinchli),
- emotsional holat (*зреть* – g'amgin, *страшно* – qo'rqinchli),
- emotsional tutish (*ужасаться* – dahshatga tushmoq, *жалеть* – achinmoq/ayamoq),
- emotsiyaga fiziologik reaksiya (*побелеть* – rangi oqarib ketmoq, *побагроветь* – qizarib ketmoq, *похолодеть* – muzlab ketmoq),
- emotsiyaga xulqiy munosabat bildirish (*убежать в ужасе* – dahshatga tushish, *ударить кулаком по столу от досады* – stolga mushtlab urmoq).

Aneta Pavlenko esa o'z tahlili jarayonida ingliz tilida 20ta emotsional lemma-larni aniqlaydi va ularning asosini sifatlar tashkil etishi to'g'risidagi fikrni bildiradi. Muallif emotsianallikni anglatuvchi quyidagi sifatlarni keltiradi: "angry", "mad", "sad", "frustrated", "disturbed", "depressed", "disappointed", "confused", "distraught", "embarrassed", "perplexed", "pissed", "shocked".

Keltirilgan emotsional konseptlarning ko'pchiligi agressivlik va kauzativlik semantikasiga ham tegishli.

Rus tilshunosi Y. Apresyan rus va ingliz tillaridagi emotsional klasterlarni tadqiq etar ekan, u emotsiyalarni anglatadigan turli til vositalarini ikkiga ajratadi:

1) emotsiyaning har xil belgi va turlarini tarkibiga oladigan har xil gap bo'laklarining sinonim hamda analoglari (misol uchun, rus tilidagi "qo'rquv" (страх) klasteri uchun- бояться, пугаться, трусить, страшиться, опасаться, страх, боязнь; ingliz tili uchun to be afraid, to be scared, to fear, fear, dread);

2) emotsiyaning yuzaga kelishida turli tuman aspektlarni namoyish etadigan vositalar, xususan-kauzatsiya (пугать, страшный), ichki emotsional holat (грустно, страшно), emotsional asoslangan fe'l-atvor (ужасаться, жалеть), emotsiyaga fiziologik reaksiya (побелеть, побагроветь, похолодеть; emotsiyaga xulq-atvor jihatidan munosabat bildirish (убежать в ужасе, ударить кулаком по столу от досады).

Antropologiya va psixologiya tadqiqotchilari fikrlariga ko'ra turli tilda so'zlovchilar va turli madaniyat vakillari emotsional va kognitiv tajribani turlicha konseptlashtirishadi. Xususan Rosaldo emotsiyalar to'g'risida fikr yuritarkan, muallif ularni shaxsga tegishli qisman jismoniy, shu bilan birga axloqiy yoki ma'naviy munosabatlarni aks ettirishini ta'kidlaydi.

Keltirilgan salbiy emotsiya o'z navbatida agressivlik bilan bog'liq semantikani ham o'z ichiga qamrab oladi. Agressiv emotsiyalarning lingvistik tasviri ushbu tilshunoslar qarashlaricha ekspressivlikning "yaxshi" (xursandchilik, g'urur kabi ijobiy emotsiyalarning boshidan kechirishida) yoki "yomon" (qo'rquv, g'azab, uyat holatlarida) holatlarni his etishiga asoslanishadi.

Ko'rinib turibdiki keyingi davrdagi emotsiya bilan bog'liq tadqiqotlar, tahlillar ma'lum bir morfologik (ot, sifat, fe'l va hakoza) tizim doirasida emas, balki emotsionallikning umumiy yoki xususiy xususiyatlarini qamrab olmoqda. Bu hol til taraqqiyotining boshqa sohalar bilan, jumladan psixolingvistik bog'liq ravishda olib borilishi, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologik yo'nalishlarning keng tarmoqlanishining natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Apresyan Yu. D. Izbrannie trudi: M., 1995.
2. Vejbitskaya A. Semanticheskiye universalii i opisanie yazika. M., 1999.
3. Kerrol E. Izard., Psixologiya emotsiy. SPb.: Piter, 2012.
4. Maslova V. A. Lingvokulturologiya. M., 2001.

СЕРТИФИКАТ УЧАСТНИКА

CV Международной научно-практической конференции
«Молодой исследователь: вызовы и перспективы»

Настоящий сертификат подтверждает участие в конференции
и публикацию статьи в электронном сборнике трудов

***Хайруллаева Гулнора,
Мусаева Дилсуз Туйчиевна***

«AGRESSIYA KONSEPTI VA UNING VERBALLASHUVI»

Исполнительный директор
Издательство «Интернаука»



Е.Ю. Бутакова

11.02.2019
Москва

